O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 1(045)(575.1)

Xabiba N. OBLOMURADOVA,
PhD, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: h.oblomuradova@tsul.uz, ORCID: 0000-0002-6622-8046

TDIU professori, f.f.d I.S.Saifnazarov taqrizi asosida

ENHANCING YOUTH DIGITAL CULTURE AS AN IMPORTANT FACTOR IN HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT

Annotatsiya

The article analyzes the importance of youth digital culture for human capital development in the context of digital transformation. It examines the key components of digital culture and their impact on the development of young people’s knowledge, skills, and competencies.

Key words: Digital culture, human capital, digital transformation, youth, digital literacy, digital competencies, critical thinking, digital communication, responsibility, digital security.

ПОВЫШЕНИЕ ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Аннотация

В статье анализируется значение цифровой культуры молодежи для развития человеческого капитала в условиях цифровой трансформации. Рассматриваются основные составляющие цифровой культуры и их влияние на развитие знаний, навыков и компетенций молодежи.

Ключевые слова: Цифровая культура, человеческий капитал, цифровая трансформация, молодежь, цифровая грамотность, цифровые компетенции, критическое мышление, цифровая коммуникация, ответственность, цифровая безопасность.

YOSHLARNING RAQAMLI MADANIYATINI YUKSALTIRISH – INSON KAPITALI RIVOJINING MUHIM OMILI

Annotatsiya

Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning raqamli madaniyati va uning inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Unda raqamli madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari hamda ularning yoshlarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlari: Raqamli madaniyat, inson kapitali, raqamli transformatsiya, yoshlar, raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya, tanqidiy fikrlash, raqamli kommunikatsiya, mas’uliyat, raqamli xavfsizlik.

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi inson kapitalining mazmuniga yangi talablarni qo‘ymoqda. An’anaviy bilim, malaka va tajribaga raqamli kompetensiya, axborotni tanqidiy baholash, raqamli kommunikatsiya, axborot xavfsizligi va yangi texnologiyalarga moslashuvchanlik kabi sifatlar qo‘shilmoqda. Shu bois raqamli madaniyat zamonaviy inson kapitalini rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Mazkur masala O‘zbekistonning taraqqiyot ustuvorliklarida ham o‘z aksini topmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 28-avgustdagi nutqida “bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirish” muhim vazifa sifatida belgilangan. Raqamli transformatsiya sharoitida ushbu vazifa yoshlarning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi, axborotni izlash, tahlil qilish va baholashi hamda texnologik o‘zgarishlarga moslashishi bilan chambarchas bog‘liq.

Yoshlar raqamli texnologiyalarni faol o‘zlashtiruvchi va kelajakdagi mehnat resursining muhim qismini tashkil etuvchi qatlamdir. Biroq texnologiyalardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi raqamli madaniyatning yuqori darajasini anglatmaydi. Muhimi, ulardan ongli, tanqidiy, mas’uliyatli va samarali foydalana olishdir.

O‘zbekistonda Internetdan foydalanish ko‘lamining kengayishi ham ushbu masalaning dolzarbligini oshirmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar-avgust oylarida aholining 94,2 foizi Internetdan foydalangan. Shunday sharoitda asosiy masala Internetga kirish imkoniyatini kengaytirish bilan birga, undan samarali foydalanish va raqamli imkoniyatlarni bilim hamda kompetensiyaga aylantirishdan iborat. Shu jihatdan, yoshlarning raqamli madaniyatini yuksaltirish inson kapitalining sifatini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlarning raqamli madaniyati va inson kapitali o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy ijtimoiy-falsafiy hamda iqtisodiy tadqiqotlarda insonning bilim, ko‘nikma, kompetensiya va qadriyatlari transformatsiyasi nuqtayi nazaridan tadqiq etilmoqda. Xususan, inson kapitali nazariyasi vakillari T.Shults va G.Bekker insonning bilim, ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va tajribasini iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorlikni ta’minlovchi muhim kapital sifatida asoslab berganlar [1]. Mazkur yondashuv raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalining tarkibi texnologik vositalardan foydalanish bilangina cheklanmay, axborotni izlash, tahlil qilish, raqamli muhitda muloqot qilish, yangi bilim va mahsulotlar yaratish hamda raqamli xavflarni boshqarish kompetensiyalari bilan boyib borayotganini anglash imkonini beradi.

M.Kastelsning “tarmoq jamiyati” konsepsiyasi mazkur jarayonning ijtimoiy mohiyatini ochib berishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning qarashlariga ko‘ra, zamonaviy jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlari tobora ko‘proq axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali tashkil etilmoqda [2]. Shu nuqtayi nazardan, insonning raqamli makondagi imkoniyatlari texnologiyalarga ulanish darajasi bilan bir qatorda, tarmoq resurslaridan samarali

foydalanish, axborotni ijtimoiy kapitalga aylantirish va raqamli muhitda faol subyekt sifatida ishtirok etish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

P.Burdyo tomonidan ishlab chiqilgan madaniy kapital konsepsiyasi ham yoshlarning raqamli madaniyatini tushuntirishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Olim insonning bilimlari, ko‘nikmalari, dunyoqarashi va ijtimoiy muhitda shakllangan kompetensiyalarini muayyan ijtimoiy resurs sifatida talqin qiladi [3]. Raqamli transformatsiya sharoitida mazkur yondashuvni davom ettirgan holda raqamli bilim, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari va raqamli kommunikativ tajribani insonning zamonaviy madaniy kapitalini shakllantiruvchi omillar sifatida baholash mumkin. Shu bilan birga, oiladagi madaniy kapital, ota-onalarning media vositachiligi va ijtimoiy muhit yoshlarning raqamli ko‘nikmalari hamda internetdan foydalanish xarakteriga ta’sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli tengsizlik konsepsiyasi doirasidagi tadqiqotlar raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlaridagi farqlar inson kapitalini shakllantirish jarayoniga ta’sir etishini ko‘rsatmoqda. J.van Deyk va E.Helsper tadqiqotlarida raqamli tengsizlik faqat internet yoki texnologik qurilmalarga ega bo‘lish bilan cheklanmay, undan foydalanish ko‘nikmalari, foydalanish shakllari va olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy natijalardagi tafovutlar bilan ham bog‘liqligi asoslangan [4]. H.Jenkins va uning hammualliflari esa raqamli muhitda faol ishtirok etish, hamkorlik qilish, media kontent yaratish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy raqamli madaniyatning muhim jihatlari ekanini ta’kidlaydilar [5]. L.Floridi tomonidan ilgari surilgan “infosfera” konsepsiyasi esa raqamli texnologiyalar insonning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va mavjudlik tajribasini o‘zgartirayotganini tushuntirish imkonini beradi [6]. Shu jihatdan, raqamli muhitning inson kapitaliga ta’siri texnologiyalarga ega bo‘lishning o‘zi bilan emas, balki ulardan samarali foydalanish, axborot va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish hamda raqamli imkoniyatlarni bilim, ijtimoiy faollik va iqtisodiy resursga aylantirish qobiliyati bilan belgilanadi.

UNESCOning raqamli savodxonlik konsepsiyasida axborotni izlash, boshqarish, tushunish, baholash, kommunikatsiya qilish va yaratish bilan bog‘liq raqamli kompetensiyalarga alohida e’tibor qaratiladi. Biroq raqamli savodxonlikni raqamli madaniyat bilan aynanlashtirish maqsadga muvofiq emas: raqamli savodxonlik asosan texnologik va axborot kompetensiyalarini ifodalasa, raqamli madaniyat ularni qadriyatlar, axloqiy-huquqiy me’yorlar, kommunikativ mas’uliyat va ijtimoiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtiruvchi tizimni anglatadi. Shu asosda raqamli madaniyatni shaxsning raqamli makonda axborot va texnologiyalardan ongli, tanqidiy, axloqiy-huquqiy va mas’uliyatli foydalanishini ta’minlovchi bilim, qadriyat, kompetensiya va xulq-atvorlar tizimi sifatida talqin qilish mumkin[7]. Mavjud tadqiqotlarda inson kapitali, raqamli savodxonlik, kompetensiya va tengsizlik masalalari alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, yoshlarning raqamli madaniyatini inson kapitalini rivojlantiruvchi kompleks ijtimoiy-madaniy omil sifatida tadqiq etish yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu bois ularning o‘zaro bog‘liqligini bilim, kompetensiya, qadriyat, ijtimoiy faollik va mehnat unumdorligi mezonlari asosida o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Raqamli transformatsiya jarayoni inson kapitalining ijtimoiy mazmunini o‘zgartirib, shaxs salohiyatining namoyon bo‘lish shakllarini ham qayta belgilamoqda. Agar an’anaviy yondashuvlarda inson kapitalining asosiy manbalari sifatida bilim, kasbiy tayyorgarlik va mehnat tajribasi qaralgan bo‘lsa, raqamli jamiyatda ushbu resurslarning ijtimoiy qiymati ularni yangi faoliyat sharoitlarida qo‘llash qobiliyati bilan ham belgilanadi. Bu holat inson kapitaliga faqat iqtisodiy unumdorlik nuqtayi nazaridan emas, balki shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki, mustaqil qaror qabul qilishi va o‘zgaruvchan muhitdagi faolligi bilan bog‘liq ko‘p qirrali hodisa sifatida yondashishni taqozo etadi. Bizningcha, raqamli madaniyat aynan shu xususiyatlarni o‘zaro bog‘lovchi ijtimoiy-madaniy omildir.

Raqamli muhitda bilimning mavjudligi va uni ijtimoiy ahamiyatga ega natijaga aylantirish bir xil jarayon emas. Axborotni izlash, uning ishonchliligini tekshirish va olingan ma’lumot asosida mustaqil xulosa chiqarish shaxsning raqamli faoliyatdagi subyektlik mavqeyini belgilaydi. Bu yerda gap faqat texnologik vositalarni o‘zlashtirish haqida emas, balki insonning axborotga munosabati va o‘z xatti-harakatlarini anglab boshqarishi haqida bormoqda. Shu jihatdan raqamli madaniyat inson kapitali rivojining tashqi sharti bo‘libgina qolmay, bilim va ko‘nikmalarning ijtimoiy faollikka aylanishida ishtirok etuvchi ichki regulyativ mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan yangi vazifalar mazkur masalaning amaliy ahamiyatini kuchaytirmoqda. Yoshlarning raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari ularning ta’lim olishi va kasbiy salohiyatini rivojlantirishi uchun yangi sharoit yaratmoqda. Biroq bu imkoniyatlarning mavjudligi o‘z-o‘zidan ijobiy natija bermaydi. Ularning inson kapitaliga ta’siri shaxsning raqamli muhitdagi maqsadlari, axborotni o‘zlashtirish usullari va egallangan bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish qobiliyatiga bog‘liq. Demak, yoshlarning raqamli madaniyatini rivojlantirishni texnologik tayyorgarlik bilan cheklamasdan, ularning ijtimoiy subyekt sifatida shakllanishi bilan bog‘liq jarayon sifatida o‘rganish lozim.

Raqamli madaniyat va inson kapitali o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik raqamli muhitda mavjud imkoniyatlarni o‘zlashtirish, zarur bilim va ko‘nikmalarni egallash hamda ularni ongli faoliyatda qo‘llash jarayonida namoyon bo‘ladi. Raqamli madaniyat ushbu jarayonda egallangan bilim va ko‘nikmalarni maqsadli foydalanish bilan bog‘lab, ularning amaliy kompetensiyalarga aylanishiga xizmat qiladi. Shu orqali shaxsning intellektual va kasbiy salohiyati rivojlanib, inson kapitalining mazmuni boyib boradi.

Mazkur yondashuv raqamli tengsizlikni ijtimoiy-falsafiy jihatdan qayta anglash imkonini beradi. Texnologiyalarga kirish imkoniyatidagi farqlar raqamli tengsizlikning muhim ko‘rinishi bo‘lib qolsa-da, mavjud resurslardan foydalanish qobiliyati va ular orqali erishiladigan natijalardagi tafovutlar ham uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, bir xil raqamli imkoniyatlarga ega yoshlarning biri internetdan asosan ko‘ngilochar axborot iste’moli uchun foydalansa, boshqasi uni bilim olish va kasbiy rivojlanish vositasiga aylantirishi mumkin. Ushbu farqni faqat individual tanlov bilan izohlash yetarli emas, chunki raqamli faoliyatga oilaviy muhit, ta’lim sifati, ijtimoiy ehtiyojlar va madaniy qadriyatlar ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois raqamli tengsizlikni kamaytirish texnologik infratuzilmani rivojlantirish bilan birga, yoshlarning raqamli madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy institutlar faoliyatini ham takomillashtirishni talab etadi[.

Raqamli madaniyat shaxsning raqamli muhitdagi bilimi, qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va xatti-harakatlarini birlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilinadi. U o‘zida kognitiv, aksiologik, kommunikativ, axloqiy-me’yoriy va xulq-atvor komponentlarini birlashtirgan. Ya’ni, raqamli madaniyatni nafaqat texnik ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida, balki shaxsning raqamli makondagi ijtimoiy mavqeyi va faoliyatini belgilaydigan sotsiomadaniy hodisa sifatida tahlil qilish joiz.

Komponentlar	Mazmuni	Inson kapitaliga ta’siri
Kognitiv	Axborotni izlash, anglash, tahlil qilish, taqqoslash va tanqidiy baholash	Bilim va intellektual salohiyatni oshiradi
Aksiologik	Raqamli muhitdagi qadriyatlar, maqsadlar va ustuvorliklarni anglash	Shaxsning ijtimoiy-madaniy yo‘nalishini belgilaydi
Kommunikativ	Raqamli muhitda muloqot qilish, axborot almashish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish	Ijtimoiy aloqalar va professional hamkorlikni kengaytiradi

Axloqiy-me’yoriy	Raqamli etika, huquqiy me’yorlar, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va mas’uliyatga rioya qilish	Mas’uliyatli faoliyat va o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi
Amaliy faoliyat	Raqamli bilim va ko‘nikmalarni amalda qo‘llash	Kasbiy kompetensiya va mehnat unumdorligini oshiradi

1-rasm. Raqamli madaniyatning tarkibiy komponentlari va ularning inson kapitali rivojiga ta’siri

Ushbu komponentlar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik raqamli madaniyatning yaxlitligini belgilaydi. Axborotni izlash qobiliyati uning ishonchliligini baholash bilan, texnologik ko‘nikmalar esa raqamli etika va mas’uliyat bilan uyg‘unlashgandagina shaxsning raqamli muhitdagi faoliyati to‘laqonli madaniy mazmun kasb etadi. Masalan, axborotni tez topa oladigan, ammo uning manbasini tekshirmaydigan shaxsning raqamli kompetensiyasi muayyan darajada shakllangan bo‘lsa-da, uning tanqidiy tafakkuri yetarli rivojlanmagan bo‘lishi mumkin. Demak, raqamli madaniyatning mohiyati alohida ko‘nikmalar mavjudligida emas, balki bilim, qadriyat va xatti-harakatlar o‘rtasidagi muvofiqlikda namoyon bo‘ladi.

Bu jihat raqamli savodxonlik va raqamli madaniyat tushunchalarini farqlash uchun ham muhimdir. Raqamli savodxonlik, asosan, texnologiyalardan foydalanish va axborot bilan ishlashga doir kompetensiyalarni ifodalaydi. Raqamli madaniyat esa mazkur kompetensiyalarning shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar va mas’uliyat bilan bog‘liq holda amal qilishini qamrab oladi. Shuning uchun raqamli madaniyatni shaxsning raqamli muhitdagi munosabatlarini tartibga soluvchi va uning ijtimoiy faoliyatiga ma’no beruvchi sotsiomadaniy tizim sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Raqamli madaniyatning inson kapitaliga ta’siri uchta asosiy yo‘nalishda ko‘rinadi. Birinchi yo‘nalish shaxsning bilish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, axborotni tanqidiy baholash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanishini qamrab oladi. Ikkinchi yo‘nalish raqamli resurslarni ta’lim va kasbiy faoliyatga jalb etish orqali bilimlarni amaliy salohiyatga aylantirishni ifodalaydi. Uchinchi yo‘nalish esa raqamli muloqotda ishtirok etish, hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va ijtimoiy mas’uliyatni namoyon etish bilan belgilanadi. Ushbu yo‘nalishlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki shaxsning raqamli muhitdagi faoliyati jarayonida o‘zaro ta’sirda amal qiladi.

Raqamli muhitda axborot oqimining jadallashuvi mazkur jarayonning ziddiyatli jihatlarini ham yuzaga chiqaradi. Axborotdan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi bilish doirasini boyitishi mumkin, biroq manipulyativ mazmun va ishonchsiz ma’lumotlarning tarqalishi mustaqil fikrlash uchun qo‘shimcha to‘siqlar ham yaratadi. Xuddi shuningdek, raqamli kommunikatsiya ijtimoiy aloqalarni kengaytirishi bilan birga, shaxsiy ma’lumotlarning daxlsizligi va virtual munosabatlardagi mas’uliyat masalalarini ham dolzarblashtiradi. Shu sababli raqamli madaniyatni rivojlantirish axborot xavflarini anglash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberbullingning oldini olish va mualliflik huquqini hurmat qilish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham talab etadi.

Shunday qilib, raqamli madaniyatning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati insonning texnologik muhitga moslashishidan ko‘ra kengroq mazmunga ega. U shaxsning raqamli imkoniyatlardan qanday foydalanishi, o‘z bilimi va qadriyatlarini faoliyatida qay darajada namoyon etishi hamda ijtimoiy munosabatlarda qanday mas’uliyatni zimmasiga olishi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli madaniyat inson kapitalining rivojlanishini ta’minlovchi bilim va ko‘nikmalarni ijtimoiy faoliyat bilan bog‘laydigan muhim sotsiomadaniy mexanizmdir.

Xulosa va takliflar. Yangi O‘zbekistonda yoshlarning raqamli madaniyatini yuksaltirish va inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha bir qator taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Birinchidan, o‘quvchilarda raqamli madaniyatni rivojlantirish maqsadida axborotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni aniqlash, raqamli etika va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid mashg‘ulotlarni fanlar mazmuniga integratsiya qilish.

Ikkinchidan, yoshlarning raqamli madaniyatini inson kapitalini rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish maqsadida raqamli kompetensiyalar, sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish, raqamli kommunikatsiya, axborot xavfsizligi va kasbiy faoliyatda texnologiyalarni samarali qo‘llashni qamrab oluvchi fanlararo o‘quv modullarini joriy etish.

Uchinchidan, yoshlar orasida raqamli madaniyatni yuksaltirish, virtual muhitda mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirish va raqamli makondagi ijtimoiy munosabatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan ma’rifiy loyihalarni amalga oshirish, bunda raqamli etika, kiberbullingning oldini olish va manipulyativ axborotni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish.

To‘rtinchidan, yoshlarning raqamli madaniyatini mehnat bozori talablariga mos rivojlantirish maqsadida raqamli vositalardan samarali foydalanish, jamoaviy ishlash, ijodiy muammolarni hal etish va yangi texnologiyalarga moslashish ko‘nikmalarini kasbiy tayyorgarlik jarayoniga kiritish.

Beshinchidan, yoshlar raqamli madaniyatining kognitiv, aksiologik, kommunikativ, axloqiy-me’yoriy va amaliy-faoliyat komponentlarini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bilim salohiyati, kasbiy kompetensiyalari, ijtimoiy faolligi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga ta’sirini aniqlash metodikasini takomillashtirish.

ADABIYOTLAR

1. Schultz T. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51. – No. 1. – P. 1–17.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
3. Bourdieu P. The Forms of Capital // Richardson J.G. (Ed.). Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – New York: Greenwood, 1986. – P. 241–258.
4. Van Dijk J. The Deepening Divide: Inequality in the Information Society. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2005.
5. Jenkins H., Purushotma R., Weigel M., Clinton K., Robison A.J. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. – Cambridge, MA: MIT Press, 2009.
6. Floridi L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping the Human Reality. – Oxford: Oxford University Press, 2014.
7. Саифназаров И. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 11.
8. Tojiboeva D. (2021). “Mass culture” as the most dangerous weapon of ideological pressure. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 1106.
9. Kakharov E. F. Issues of Development of Legal Culture of Youth in the New Uzbekistan //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 1. – B. 27.
10. Qaxarov E. Yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish: ijtimoiy-falsafiy tahlil //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – B. 101.